
JARAYON



JARAYON

Farg'ona shahrida "Ahil oila" maxsus profilaktik tadbirlari doirasida Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda IIO Hotin-qizlar katta inspektorlaridan iborat tarkibda ishchi guruh tomonidan profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda

Tadbirlar doirasida alohida toifadagi xotin-qizlar, jumladan, himoya orderi bilan ta'minlanganlar, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchilar, ajrim yoqasiga kelib qolganlar, uzoq muddat migratsiyadan qaytganlar va boshqa toifadagilar bilan rejali tezkor-profilaktik chora tadbirlar olib borilmoqda.

Mazkur tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda uning hududiy bo'linmalari xodimlari hamda IIB JXX HPB Hotin-qizlar katta inspektorlaridan iborat tarkibda ishchi guruhi shakllantirilgan.

Mazkur ishchi guruh tarkibida faoliyat olib borayotgan So'x tumani IIB JXX HPB HQMB katta inspektori, podpolkovnik Shahnozaxon Shodmonovanning so'zlariga ko'ra, bunday tadbirlar har bir tumanda tashkillashtirilishi uchun dasturulamal amal bo'lib xizmat qiladi. Zotan, tinch oila tinch va osoyishta jamiyatning asosiy bo'g'inlaridan hisoblanadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-05-21 17:23:30